

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FUQAROLIK JAMIYATI  
INSTITUTLARI MAQOMINING BELGILANISHI

Fayziyeva Dilnoza Abduraximovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10674881>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyatni institutlari mayjud tuzilmalari yordamida jamiyat a'zolarining ma'lum bir toifalari manfaatlarini yoki ularning g'oyasini ifodalashi va ularni himoya qilish maqsadida o'z faoliyatini tashkil etishda muhim o'rinn tutishidan kelib chiqib, uning maqomi belgilanishini yoritib berishdir. Fuqarolik jamiyatni institutlarining mayjudligi jamiyatni bir qobiqqa tushib qolish, jamiyat a'zolarining passivligi yuzaga kelishining oldini oladi va rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi. Jamiyatda turli qatlamlagi, turli faoliyatga asoslangan institutlar judayam ko'plab topiladi.

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyatni institutlari, jamoat birlashmalari, ommaviy harakatlar, demokratik institut, yoshlar tashkiloti, xotin-qizlar tashkilotlari, kasaba uyushmalari.

**DETERMINATION OF THE STATUS OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN  
THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**Abstract.** In this article, the purpose of this article is to clarify the status of civil society institutions in our Constitution, based on the fact that they represent the interests of certain categories of society members or their ideas and take an important place in organizing their activities with the help of existing structures.

**Keywords:** civil society institutions, public associations, mass movements, democratic institutions, youth organizations, women's organizations, trade unions.

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ СТАТУСА ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА  
В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Аннотация.** В данной статье целью данной статьи является уточнение статуса институтов гражданского общества в нашей Конституции, исходя из того, что они представляют интересы определенных категорий членов общества или их идеи и занимают важное место в организации их деятельности с помощью существующих структур. Наличие институтов гражданского общества предотвращает попадание общества в скорлупу, пассивность членов общества, выполняет задачу развития. В обществе существует множество институтов разного уровня, основанных на разных видах деятельности.

**Ключевые слова:** институты гражданского общества, общественные объединения, массовые движения, демократические институты, молодежные организации, женские организации, профсоюзы.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi 69-75-moddalari "Fuqarolik jamiyatni institutlari"ga bag'ishlangan. Fuqarolik jamiyatining asosiy ustuni - bu shaxs, uning o'zini o'zi anglash huquqi, yordamchi tuzilmalar esa shaxsning salohiyatini, uning manfaatlarini, maqsadlarini, ehtiyojlarini, intilishlarini har tomonlama ro'yobga chiqarishga yordam beradigan barcha institutlar, tashkilotlar, guruhlardir.

Fuqarolik jamiyatni faoliyatining ustuvor shartlari jamiyatda aholining turli guruhlari manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashdirish, fuqarolar totuvligi va barqarorligini ta'minlash orqali butun jamiyatni birlashtirish, umumiy fuqarolik konsensusiga erishiladigan barkamol ijtimoiy tuzilmaning mavjudligidir.

Fuqarolik jamiyatni institutlari mavjud tuzilmalari yordamida jamiyat a'zolarining ma'lum bir toifalari manfaatlarini yoki ularning g'oyasini ifodalaydi va ularni himoya qilish maqsadida o'z faoliyatini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatni institutlarining mavjudligi jamiyatni bir qobiqqa tushib qolish, jamiyat a'zolarining passivligi yuzaga kelishining oldini oladi va rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi.

Jamiyatda turli qatlAMDagi, turli faoliyatga asoslangan institutlar judayam ko'plab topiladi.

Shular ichida zalvorlisi, uning faoliyati natija berish prognozini keltirib chiqaradigan tuzilmalarni yanada rivojlantirish, qo'llab quvvatlash va faoliyatini kengaytirishi uchun o'z atrofiga shu maqsad bo'yicha birlashadigan kishilarni yig'ib birgalikda harakatlanishga undovchi guruhlar va uyushmalarning faoliyat olib borishi muhimdir.

Shuningdek, ushbu guruh va uyushmalar albatta davlat va jamiyat manfaatlarini ifodalashi va unga xizmat qilishi, unining ma'lum bir sohalari rivojini ko'zlash va shu sohaning fidoiyları xizmatini qadrlash mushtarakligini ham o'zida ifoda etishi zarurdir.

**Jamoat birlashmalari** - fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan birlashmalari. O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari sirasiga kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, olimlarning jamiyatlar, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

**Kasaba uyushmalari** – mehnatkashlar huquqlarini himoya qiluvchi tuzilmadir. O'z Ustaviga muvofiq kasaba uyushmalari O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasiga birlashgan bo'lib, ular ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida mehnatni, ijtimoiy himoya qilish maqsadida faoliyat turlari bo'yicha umumiy manfaatlar bilan bog'langan ishchilarining ixtiyoriy notijorat tashkilotlari hisoblanadi.

Kasaba uyushmalar mehnatkashlarning eng nufuzli va eng keng tarqalgan vakillari sifatida ham jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ularning huquqiy holatini qonun bilan belgilab berdi, u kasaba uyushmalari huquqlari va ularni amalga oshirish kafolatlari majmuini belgilab beradi. Kasaba uyushmalari va ijtimoiy sheriklar o'rtaсидаги о'заро munosabatlarning asosiy shakli jamoaviy bitimdir.

Kollektiv muzokaralar natijasida jamoa shartnomalari va jamoaviy bitimlar tuziladi. Shu bilan birga, kasaba uyushmalari ushbu jamoa shartnomalarida ishchilar nomidan ishlaydi. Xodimlarning manfaatlariga hech qanday ta'sir ko'rsatilmaydi.

Amaldagi qonunchilikda boshqa vakillik taqiqlanmagan va u Mehnat kodeksida kasaba uyushmasiga muqobil sifatida bevosita ko'rsatilgan bo'lsa-da, amalda u keng qo'llanilmaydi.

Kasaba uyushmalari harakatining rivojlanishi va ommaviyligidan kelib chiqqan holda, jamoa shartnomasida mehnatkashlarning qonuniy huquq va manfaatlarini aynan kasaba uyushmalari himoya qiladi. Jamoa shartnoma aktlari xulosa darajasi bilan farqlanadi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni kelishilgan holda amalga oshirishning umumiy tamoyillari Bosh kelishuv bilan belgilanadi.

Korxona darajasida faqat jamoa shartnomalari tuziladi.

Ta'kidlash joizki, jamoa shartnomasini tartibga solish mexanizmi orqali mehnat sharoitlarini o'rnatish faoliyati kasaba uyushmalarining asosiy faoliyati, xodimlarning mehnat sohasidagi manfaatlarini himoya qilish huquqlarini ta'minlashdir. Kasaba uyushmalari faoliyatining kafolatlari O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligidagi aniq belgilab qo'yilgan.

Shunday qilib, amaldagi qonunchilik kasaba uyushmasiga a'zolik bilan bog'liq kamsitishlarni taqiqlaydi. Xodimga kasaba uyushmasiga kirish yoki undan chiqish uchun bosim o'tkazilmasligi kerak.

Kasaba uyushmalari tog'risidagi qonun hujjatlari kasaba uyushma a'zolarining faoliyatini kafolatlaydigan va ish beruvchi tomonidan har qanday shaklda ta'qib qilishni, intizomiy jazo qo'llashni, mehnat shartnomasini bekor qilishni, kafolatlangan ta'minlashni taqiqlash bilan bog'liq bir qator qoidalarni o'z ichiga oladi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.2023
2. "Habeas Sorpus Act" 1679-yil 26-may
3. "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi PF-3644. 2005-yil 8-avgust